

MILLIY VA XALQARO YAKKAKURASH SPORT TURLARINING RIVOJLANISHI

I.A.Mirzabekov

Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: O‘zbekistonda milliy kurash turlari yakkakurash turi sifatida vaziyatli sport turiga kiradi, chunki bellashuv vaqtida yuzaga keladigan tez o‘zgaruvchan vaziyatlar bilan ifodalanadi, shuningdek, bu yerda raqib bilan faol to‘qnashuv natijasida paydo bo‘ladigan chalg‘ituvchi omillarning ta‘siri ham katta. 2000 yildan boshlab, matbuotda Vatanimiz olimlari va tadqiqotchilarining salmoqli ishlari paydo bo‘ldi, ular nafaqat nazariy va amaliy ahamiyatga ega, balki kurash mavqeini halqaro sport maydonida oshirishga yordam beradi 2005 yilda belbog‘li kurash uchun yagona qoidalar belgilab berildi.

Kalit suzlari: maxsus, belbog‘ni, sport, tomosha, jismoniy, milliy, ustuvorlik, faol, nazariy.

Abstract: In Uzbekistan, national wrestling is a situational sport, as it is represented by rapidly changing situations that occur during the competition, and the influence of distractions arising from an active conflict with the opponent is also significant. Since 2000, significant works of scientists and researchers of our country have appeared in the press, they are not only of theoretical and practical importance, but also help to increase the position of wrestling in the international sports field. In 2005, uniform rules for belt wrestling were established.

Keywords: special, belt, sport, spectacle, physical, national, priority, active, theoretical.

Аннотация: В Узбекистане национальная борьба является ситуативным видом спорта, так как она представлена быстро меняющимися ситуациями, возникающими в ходе соревнований, а также существенно влияние отвлекающих факторов, возникающих в результате активного конфликта с противником. С 2000 года в печати появляются значимые работы ученых и исследователей нашей страны, имеющие не только теоретическое и практическое значение, но и способствующие повышению позиций борьбы на международном спортивном поле. В 2005 году введены единые правила для поясов. была создана борьба.

Ключевые слова: специальный, пояс, спорт, зрелище, физический, национальный, приоритетный, активный, теоретический.

Xalqaro sport harakatining jadal va har tomonlama rivojlanishi, shuningdek, jamiyat hayotining barcha sohalarida sportning ommalashuvining sezilarli o‘sishi jismoniy tarbiyaning milliy turlari xalqaro maqomga ega bo‘lishiga yordam bermoqda. Milliy sport turlari geografiyasining kengayishi turli xil xalqaro sport tashkilotlari hamda olimpiya harakatining faol ko‘magiga sodir bo‘lmoqda [4] Ko‘pgina davlatlarda milliy yakkakurash sport turlari orasida belbog‘li kurash ming yillik tarixga ega. Milliy yakkakurash sport turlarini rivojlantirish Xalqaro assosatsiya, boshqa sport vakolatxonalarini tomonidan amalga oshiriladi. Avvallari raqiblar nafaqat belbog‘dan, balki sochiqdan ham ushlab kurash tushganlar. Biroz vaqt o‘tib, ko‘pgina davlatlarga xos uslubni birlashtiruvchi maxsus sport turi yaratilgandan so‘ng ishtirokchilarning standart formasi o‘z-o‘zini himoya qilish usuli sifatidagi belbog‘ni eslatuvchi moslamadan iborat.

Belbog‘li kurash to‘qnashuvli yakkakurash sport turi hisoblanadi. Qadimda hamma xalqlar shaxsiy, yuz yillar mobaynida ishlov berilgan shunday kurash uslubiga ega bo‘lgan. Asosan u ko‘ngilochar tomosha sifatida foydalanilgan, lekin yana musobaqalar yoki urushlar

vaqtida ham qo‘llanilgan. Yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish maqsadida jismoniy tarbiya va sportning milliy vositalarining yuqori ijtimoiy ahamiyati olimlar va amaliyotchi xodimlar oldiga xalqaro sport maydonlarida munosib qatnasha oladigan sportchilarni tayyorlashning isbotlangan tizimini ishlab chiqish hamda amalga oshirish vazifasini qo‘yadi. Bunda milliy sport turlarining o‘ziga xos qirralari va xususiyatlarini saqlab qolish ustuvorlik kasb etadi. [2]

Bu vazifa jahonda jismoniy tarbiya rivojlanishida milliylik va baynalminallik jihatlarining optimal nisbatlarini ta‘minlangan sharoitdagina muvaffaqiyatli hal etilishi mumkin. [5]

O‘zbekistonda milliy kurash turlari yakkakurash turi sifatida vaziyatli sport turiga kiradi, chunki bellashuv vaqtida yuzaga keladigan tez o‘zgaruvchan vaziyatlar bilan ifodalanadi, shuningdek, bu yerda raqib bilan faol to‘qnashuv natijasida paydo bo‘ladigan chalg‘ituvchi omillarning ta‘siri ham katta. 2000 yildan boshlab, matbuotda Vatanimiz olimlari va tadqiqotchilarining salmoqli ishlari paydo bo‘ldi, ular nafaqat nazariy va amaliy ahamiyatga ega, balki kurash mavqeini xalqaro sport maydonida oshirishga yordam beradi 2005 yilda belbog‘li kurash uchun yagona qoidalar belgilab berildi. [3]

Ishlab chiqilgan konsepsiyaning muhim asoslari ko‘pgina kurash turlarida, jumladan, belbog‘li kurashda ham o‘z aksini topdi. O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati tomonidan olib borilayotgan maqsadli siyosat tufayli bugungi kunda kurash keng rivojlanib bormoqda. Milliy kurash turlarining rivojlanishiga O‘zbekiston Respublikasi 2017 yil 2 oktabrdagi “Milliy kurash turlarini rivojlantirish to‘g‘risida”gi Farmoni turtki bo‘lib xizmat qildi. O‘rta Osiyo va Qozog‘istondagi milliy kurash turlarining tuzilmasini aniqlashga hamda xalqaro kurash turlari bilan o‘zaro ta‘sirini o‘rganishga qaratilgan keng qamroqli va chuqur tadqiqot ishlari B.A.Bilijov tomonidan o‘tkazildi [3,4]. Muallif avval nashr etilgan ishlarning tahliliga asoslanib [1], barcha kurash turlarining o‘zaro ta‘siri va o‘zaro boyitilishiga doir tadqiqot natijalarini e‘lon qilgan.

B.A.Bilijov (1992) tomonidan olib borilgan keng miqyosdagi tadqiqotlarda milliy va xalqaro kurash turlarining o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risidagi ustunliklar aniqlangan:

- tojikcha “gushtingari” kurashi, qirg‘izcha “kuresh”, turkmancha “yakalashladi”, tuva xalqining “xuresh” kurash turlari o‘z tuzilishiga hamda mohiyatiga ko‘ra ko‘proq erkin kurash sport turiga yaqin.

- turkmancha “goresh” va tojikcha belbog‘li kurash ko‘proq dzyudoga yaqin;

- qozoqcha “kazaxsha –kures” va uning belbog‘li kurash turi ko‘proq samboga o‘xshaydi.

Muallif sanab o‘tilgan milliy kurash turlarining o‘ziga xosligi va bu yog‘i har xil darajada saqlanib qolganligini e‘tirof etadi. Bu jihatdan tojikcha milliy kurash turi – “gushtincheri” o‘ziga xos salbiy tomonlarga ega bo‘lgan bo‘lib, avvallari bu kurash turida bo‘g‘ish va og‘riq beruvchi usullar, shuningdek, raqib tanasining eng himoyasiz, nozik qismlariga turlicha ta‘sir ko‘rsatish usullari qo‘llanilgan. Biroq o‘tgan asrning 30-yillarida bu barcha usullar “gushtingiri” qoidalaridan chiqarib tashlangan, aftidan, bu usullar sportchilar salomatligi uchun xavfli hisoblangan. Buning natijasida ushbu sport turining o‘ziga xos xususiyatlari ancha kamaygan, biroq u zamonaviy erkin kurashga yaqinlashgan, xuddi shunday holat qirg‘izga “kuresh” va belbog‘li kurash turi bo‘lgan “kazaxsha-kures” sport turlariga ham taalluqlidir.

A.N.Danisenko (2018) fikricha, MDH davlatlarining 17 ta asosiy milliy kurash turlarini ajratish mumkin. Ularni ruxsat etilgan texnik harakatlar qoidalariga muvofiq to‘rtta guruhga

birlashtirish mumkin. Shunda ayon bo‘ladiki, aksariyat milliy kurash turlarida bellashuvlar faqat tik turish holatida olib boriladi, kurash qoidalaridagi asosiy farqlar esa raqib oyoqlaridan ushlab olishlarning cheklanganligidan iborat. Agar milliy va xalqaro kurash turlarining bir-biriga mosligi to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, shartli ravishda shuni taxmin qilish mumkinki, birinchi ajratilgan guruhdagi milliy kurash turlari ko‘proq yunon-rum kurashiga o‘xshash, ikkinchi guruhdagi kurash turlari ko‘proq sambo yoki dzyudoni eslatib yuboradi, uchunchi va to‘rtinchi guruhdagi milliy kurash turlari ko‘proq erkin kurashga o‘xshash. Bu xulosa, to‘laligicha bo‘lmasa ham, umuman olganda, Bilijov B.A. tomonidan olingan ma’lumotlarga mos keladi.

Adabiyotlar

1.Абрамов Н.Ю. Таджикская народная спортивная борьба : автореф. дис. ... канд. пед. наук. Л., 1950. 12 с.

2.Байков Р.К., Воробьев В.А., Тараканов Б.И. Факторная структура физической подготовленности спортсменов, занимающихся борьбой курэш // Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта. 2007. № 9 (31).

3.Гайнанов, Р.Ф. Спортивная борьба на поясах : правила соревнований / Р.Ф. Гайнанов. – Москва, 2005. – 28 с.

4.Халилов А.Ш., Костюк Н.О. О соотношении национального и интернационального в развитии физической культуры // Актуальные проблемы развития физической культуры и спорта : сб. тезисов Республ. научно- практич. конф. Ашхабад, 1991. С. 42–44

5.Замятин Ю.П., Гылыжов Б.А. Традиции и новаторство в национальнойборьбе // Актуальные проблемы физической культуры и спорта. Ашхабад, 1991. стр. 3–4